

## MAKTABGACHA TA'LIMDA INTEGRATSIYALASHGAN FAOLIYATLARNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

**Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi,**

*Navoiy innovatsiyalar universiteti professori v.b, p.f.f.d. (PhD)*

[mavludakubayeva09@gmail.com](mailto:mavludakubayeva09@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada integratsiyalashgan faoliyatlarning mazmuni, ularni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari hamda ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** integratsiya, mashg'ulot, pedagogik imkoniyatlar, kompetensiya, interfaol metodlar, ta'lim samaradorligi, fanlararo bog'liqlik.

**Аннотация.** В статье раскрывается содержание интегративной деятельности, педагогические возможности её организации, а также роль в повышении эффективности образования. Анализируются вопросы комплексного развития знаний, умений и компетенций учащихся на основе интегративного подхода.

**Ключевые слова:** интеграция, занятие, педагогические возможности, компетенция, интерактивные методы, эффективность образования, междисциплинарные связи.

**Abstract.** The article reveals the content of integrative activities, pedagogical possibilities of their organization, as well as their role in enhancing the effectiveness of education. The issues of comprehensive development of students' knowledge, skills, and competencies based on an integrative approach are analyzed.

**Keywords:** integration, lesson, pedagogical opportunities, competence, interactive methods, educational effectiveness, interdisciplinary connections.

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim tizimida o'quv jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ularni hayotiy vaziyatlarga tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, integratsiyalashgan faoliyatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular turli fanlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlab, bilimlarning yaxlit tizimda shakllanishiga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Mazkur mavzu bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'limda integrativ yondashuv bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining ta'limga oid me'yoriy hujjatlarida ham fanlararo bog'liqlikni ta'minlash, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarurligi alohida ta'kidlangan. Ishmuxamedov va boshqa olimlarning ishlarida interfaol metodlar hamda integratsiyalashgan mashg'ulotlarning samaradorligi ilmiy asoslangan. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda vizual texnologiyalar va didaktik o'yinlarning integrativ ta'limdagi ahamiyati keng yoritilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv hamda amaliy tajriba metodlaridan foydalanildi. Integratsiyalashgan mashg'ulotlar namunasi asosida bolalarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish

samaradorligi o'rganildi. Shuningdek, interfaol va vizual texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim jarayonining natijadorligi tahlil qilindi.

**Tahlillar va natijalar.** Integratsiyalashgan mashg'ulot – bu ikki yoki undan ortiq fan mazmunini o'zaro uyg'unlashtirish orqali tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir. Bunda o'quvchilarga berilayotgan bilimlar alohida-alohida emas, balki o'zaro bog'liq holda, kompleks tarzda yetkaziladi [1.12].

Mazkur yondashuv bolalarda:

- tizimli fikrlashni shakllantiradi;
- bilimlarni real hayot bilan bog'lash imkonini beradi;
- muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.
- Integrativ yondashuv ta'lim jarayonida quyidagi pedagogik imkoniyatlarni yaratadi [8.9].

**Quyida integratsiyalashgan faoliy ishlanmasidan namuna keltiramiz:**

**Mavzu: “Tabiatda suvning o'rni. Tajribalar” (katta guruhlar uchun)**

**Maqsad:**

**Ta'limiy maqsad:** tarbiyalanuvchilarga suv xususiyatlari va undan to'g'ri foydalanish kerakligini o'rgatish, suvning inson va tabiat uchun hayot manbai ekanligi tushunchasini singdirish.

**Tarbiyaviy maqsad:** tarbiyalanuvchilarda tabiat go'zalliklarini ko'ra bilish, uni sevish, asrash, g'amxo'rlik qilishni shakllantirish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** bolalarga suvning xususiyatlarini misollar yordamida tushuntirish.

**I. Kutilayotgan natija:**

- tarbiyalanuvchilar savollarga tezkor javob qaytara oladi;
- tarbiyalanuvchilarning tajribalar orqali zehni charxlanadi;
- tarbiyalanuvchilar vizual texnologiyalardan foydalangan holda ma'lumotlarni ko'proq eslab qoladi;
- tarbiyalanuvchilar suv xususiyatlarini bilib olishadi;
- tarbiyalanuvchilar suvning suyuq, quyuv, yumshoq va qattiq holatlarini ajrata oladi.

**II. Ta'lim faoliyatini amalga oshirish texnologiyasi:**

**Ta'lim metodlari:** “Baliq skleti”, “Taymlayn”, “Taqdimot” vizual texnologiyalari, og'zaki savol-javob.

**Shakl:** guruhlarda va individual ishlash.

**Vosita:** AKT, kompyuter, televizor, slaydlar, mavzuga oid rasmlar, suv, sut, stakan, qoshiqchalar.

**Nazorat:** kuzatish, og'zaki nazorat, o'z-o'zini nazorat, savol-javob.

**Baholash:** rag'batlantirish asosida.

### III. Faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** Assalomu alaykum quvnoq bolalar, salom ona quyosh! Xayrli kun qushlar! Bolalar, yana kimlar bilan salomlashamiz?

**Tarbiyalanuvchilar:** Ona tabiat bilan! (Assalomu alaykum deb bir ovozdan aytishadi.)

**Tarbiyachi:** Bolalajonlar, bugun biz sizlar bilan suvning xususiyatlari, suv inson va tabiat uchun zarurligi haqida gaplashamiz. Bilasizlarmi, tabiatdagi jamiki narsalar bir-biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq.

**Tarbiyachi:** Suvsiz hech bir jonzot yashay olmaydi. Tabiatdagi daraxtlar, gullar, o‘simliklar suvsiz ranglari sarg‘ayib qurib qoladi. Suv rangsiz, shaffof, hidsiz bo‘ladi.

**Tarbiyachi:** Bugungi faoliyatimizni “Fan va tabiat” markazida olib boramiz. Qadrli bolajonlar, kelinglar, suvning naqadar muhimligini bir qancha tajribalar orqali kuzatsak.

**Tarbiyachi birinchi tajribani amalga oshiradi:** Mevalarni yaxshi ko‘rib iste‘mol qilamiz. Ularning tarkibida ham suv mavjud. Olmani pichoq yordamida kesib olamiz. Quruq qog‘ozda yoki salfetka yordamida kesilgan olmani artib olamiz. Natijada qog‘ozda yoki salfetkani nam holatda ko‘ramiz. Demak, mevalarda ham suv mavjud.

**Tarbiyachi:** Bolajonlar televizorga qaraymiz! Qaysi mevani ko‘rayapmiz?


**Tarbiyalanuvchilar:** Qulupnay!

**Tarbiyachi:** Sizlar ham bu mevani yaxshi ko‘rasizlarmi?

**Tarbiyalanuvchilar:** Haaaaa!!!

**Tarbiyachi:** Hozir sizlar bilan suv yordamida qulupnayni qanday bosqichlarda o‘rishini ko‘ramiz. Tarbiyachi Taymlayn (vaqt jadvali) vizual texnologiyasidan foydalangan holda ekranda qulupnayning o‘shishi va katta bo‘lishini namoyish etadi (1-rasmga qarang).

1-rasm



**Tarbiyachi:** Bolajonlar, e'tibor bering, qulupnayimiz birinchi g'uncha bo'ldi, asta-sekinlik bilan g'uncha ochilib, gulga aylandi, gul meva tugdi, meva kattardi va oxiri meva qizil rangga aylanib, pishdi. Agar suv bo'lmasa, qulupnay o'sib mevaga aylanmas edi yoki suv quyilmasa, qaysidir bosqichida so'lib qolishi mumkin edi. Mevalarning o'sib, shirin bo'lib yetishishida suvning o'rni juda ham katta.

**Tarbiyachi ikkinchi tajribani amalga oshiradi:** Daraxt va gullarning barglarini oq qog'ozning ustiga qo'yib, tosh bilan ustidan uramiz. Bolajonlar, qog'ozda nima paydo bo'ldi?

**Tarbiyalanuvchilar:** Barglarning suvi chiqib qog'ozga o'tdi.

**Tarbiyachi:** To'g'ri bolajonlar! Demak, barglarda ham suv mavjud ekan. Bolajonlar, gullarga ham, daraxtlarga ham tez-tez suv quyilsa, ular shunchalik tez yuqoriga qarab o'sadi.

Tarbiyachi bu jarayonni Taymlayn vizual texnologiyasi orqali tushuntiradi (2-rasmlarga qarang).

*Bul dunyaning karki adam b'las*

2-rasm



**Tarbiyachi:** Mana bolajonlar, suvning xususiyatlari bilan ham tanishib oldik. Endi ikkita guruhga bo'linib olamiz. Bolalar o'z xohishlariga qarab ikkita guruhga bo'linishadi.

Tarbiyachi bolalarga o'rnidan turishni taklif etadi va kompyuterdan "Biz" eneyjayzer she'rini "Taqdimot" vizual texnologiyasi yordamida bolalarga yod oldirib, jismoniy harakatlar bajartiradi (2.2.10-rasmga qarang).

Tarbiyachi bolalarga tabiatda suvning o'rni qanday? savoli bilan murojaat qiladi. Bolalarga buni "Baliq skeleti" texnologiyasi orqali yoritib berishi lozimligi tushuntiradi. Bunda "baliq"ning bosh qismiga suvning tabiatdagi o'rni qanday ekanligini bildiruvchi savol tariqasida tabiat va suv uyg'unligini aks ettiruvchi rasm joylashtiriladi.

3-rasm



Oxirgi dum qismi xulosasiga har bir bola individual yondashishi talab etiladi. Dum qismi xulosasiga har bir bola o'zi rasm joylaydi va nima uchun bunday xulosaga kelganligini tushuntirib beradi (bolalarga xulosa qismi uchun suv tejalayotgan, suv isrof bo'layotgan va h.k. rasmlar beriladi). Bu texnologiya orqali bolalar suvning tabiat va insonlar uchun naqadar muhim ekanligini bilib oldilar. Faoliyat yakunida har bir bola rag'batlantiriladi [2.6].

Tarbiyachi kompyuterda suv isrof bo'layotgan holatni ifodalagan video rolikni qo'yib beradi.

#### IV. Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Suvning rangi qanaqa?
2. Suvning hidi bormi?
3. Meva, daraxt, gullarning tanasida ham suv bo'lishi mumkinmi?
4. Suv nima uchun kerak?
5. Gul qanday o'sadi?
6. Daraxt qanday o'sadi?

#### V. Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:

Kimlar va nimalarga suv kerakligini kuzatishlar orqali aniqlab kelish.

#### VI. Yakunlovchi qism:

Tarbiyachi ta'limiy faoliyat yakunida bolalarni shirin so'zlar va kartochkalar bilan rag'batlantiradi.

**Xulosa.** Integratsiyalashgan faoliyatlar ta'lim jarayonini samarali tashkil etishning muhim vositasi hisoblanadi. Ular o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda amaliy kompetensiyalarini shakllantirishda katta

pedagogik imkoniyatlarga ega. Shu bois, zamonaviy ta'lim tizimida integrativ yondashuvni keng qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-637-son.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-sonli Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti" 802-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ilk qadam". Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat o'quv dasturi. Tuzuvchilar: И.В.Грошева, Л.Г.Евстафьева, D.T.Mahmudova, Sh. B. Nabixonova, S. V. Pak, G. E. Djanpeisova. – T.: MTV, 2018. – 69 bet
5. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016.–279b.
6. Ishmuhammedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. T.: RBIMM, 2008. 68 b.
7. M.B.Kubaeva. THE USE OF VISUAL TECHNOLOGIES OF EDUCATION IN ECOLOGICAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS 2 (6): 06-10, June 2021 DOI:<https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-02-06-02> ISSN 2767-3278 ©2021 Master Journals
8. M.B.Kubayeva. IMPLEMENTATION OF VISUAL-DIDACTIC GAMES IN ECOLOGICAL EDUCATION OF STUDENTS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS // CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (ISSN –2767-3758) VOLUME 03 ISSUE 01 Pages:1-4 SJIF IMPACT FACTOR (2021:5.823) OCLC–1242423883 METADATA IF–6.925© 2022 Master Journals
9. M.B.Kubayeva . Visual technologies based on the principles of demonstration is the foundation for pre-schoolers' education// in Library, 2022
10. K. Mavluda. THE NEGATIVE AND POSITIVE EFFECT OF CARTOONS ON THE BEHAVIOR OF PRESCHOOL CHILDREN// International Journal of Pedagogics 4 (06), 106-110, 2024/6/20
11. Yo'ldoshev J.K., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 2004. 104 b.